


Bolalar Muqaddas Kitobi

Tasvirlab beradi



Iso O'n Ikki Yordamchi Tanladi



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustratsiya qilingan: Byron Unger; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan: E. Frischbutter; Sarah S.

60 ta hikoyadan 39-si

www.M1914.org

Bible for Children, PO Box 3, Winnipeg, MB R3C 2G1 Canada

Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin. Lekin u sotilmaydi.

O'zbekcha

Uzbek

Iso ajoyib ishlar qilgan. U kasallarni shifolagan, qiynalganlarning yuragi va ongiga tinchlik bergan, hamda Xudo Kalomini o'rgatgan.



1

Olamon Iso oldiga yordam va shifo so'rab kelardi.



2

Iso Xudoning ishini qilishda Unga yordam berishi uchun ko'plab ergashuvchilari orasidan o'n ikki kishini tanlashga qaror qildi.



3

Muhim qaror qilish kerak bo'lganda siz Xudoga ibodat qilasizmi? Iso shunday qildi! Sokin tog'li o'lkada U Samoviy Otaga duo qildi. Iso kechga qadar ibodat qildi.



4

Iso butun uzoq va qorong'u tun ibodat qilib chiqdi.



5

Tongda Iso Unga ergashuvchilarni, ya'ni, Unga xizmat qilib, bo'ysinuvchilarni chaqirdi. Ularning orasidan Iso o'n ikki maxsus yordamchilarni, ya'ni, havoriylarni tanlab oldi.



6

Iso birinchi tangalan ikki shogird Simun Butrus va Idris aka-uka edilar. Iso birinchi marta ularni chaqirganda ular baliqchilik kasbini tashlab Unga ergashgan edilar.



7

Zabadiy o'g'illari Yoqub va Yuhanno ham baliqchilik to'rlarini tashlagan edilar.




8

Iso yana Filip, Bartolmey, Matto, To'ma, vatanparvar Simun, Alfey o'g'li Yoqub, Yoqub o'g'li Yahudo, hamda keyinchalik Isoga dushman bo'lgan Yahudo Ishqariyotni tanladi.




9

Isoning ta'lim berishicha, Uning aytganlarini bajarish mustahkam poydevorda uy qurishga o'xshaydi. Bunday uyni kuchli to'fonlar vayron qilolmaydi.




10

Ammo, Isoning So'zlariga bo'ysunmaslik uyni qumli poydevorda qurish kabidir. To'fon kelganida bunday uy vayron bo'ladi.



11

Isoning ba'zi amrlarini bajarish oson emas. "Bir chakkangga urganga ikkinchisini ham tut" deb ta'lib bergan Iso. Yana U "Dunmanlaringizni sevinglar" degan. Iso kabi yashash uchun insonlar Xudoning yordamiga muxtoj.



12

Iso yana yashirin joyda ibodat qilishni aytgan, ya'ni ba'zi dindorlarga o'xshab maqtanish uchun odamlar oldiga ibodat qilmaslikni uqtirgan.



13

Iso aytganki, Xudoga ishongan odamlarni Xudo kiyim va ovqat bilan taminlaydi. Xudo qushlarga yemish beradi, gul va o'simliklarni chiroyli ranglar burkaydi.



14

Shu kabi, Xudo unga ishonganlarning barcha muxtojliklarini ta'minlaydi.




15

Iso o'sha kuni O'zining yangi tanlagan yordamchilariga ko'p narsalarni o'rgatdi. Shundan so'ng, maxovga chalingan bir kishi Iso oldiga kelib, Undan shifo so'radi.



16

Iso unga shunday javob berdi, "Senga shifo beraman. Pok bo'lg'in." Isoning yordamchilari ko'z oldida maxov kishi shifo topdi.



17

U tuzalib ketdi! Bunday ish faqat Xudoning O'g'li qo'lidan keladi. Yordamchilar ularning Ustozi ajoyibligini bilishardi.



18

Iso O'n Ikki Yordamchi Tanladi

Hikoya Xudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Matto 4-7 boblar, Mark 1-bob,
Luqo 6-bob

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim.

Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Endi Hudo bizni gunohlarimizni Iso tufayli kechira oladi.

Agar siz gunohlaringizdan ozod bo'lishni istasangiz, Hudoga shunday deb ayting: "Mehribon Hudo, Men Iso mening gunohlarim uchun o'lganiga ishonaman, iltimos mening hayotimga kel, va mening gunohlarimni kechir, men yangi hayot bilan yashashim uchun va Sen bilan abadiy bo'lishim uchun menga yordam bergin. Men Sening frazanding bo'lishimga yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!